

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NE'MATOVA GULSANAM ABDULLAYEVNA**

**OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING  
VERBAL-KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN AVTOREFERAT**

**Toshkent – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
avtoreferati mundriyasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (Phd) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Ne'matova Gulsanam Abdullayevna**

Oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish.....3

**Неъматова Гулсанам Абдуллаевна**

Совершенствованийе вербально-профессиональной компетентности будущих педагогов висших учебних заведений .....21

**Ne'matova Gulsanam Abdullayevna**

Improving the verbal-professional competence of future teachers in higher education institutions.....41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NE'MATOVA GULSANAM ABDULLAYEVNA**

**OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING  
VERBAL-KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN AVTOREFERAT**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.2.PhD/Ped3404 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullaeva Barno Sayfutdinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xakimova Muxabbat Fayzievna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Sodiqov Hamid Maxmudovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD).

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi 27 uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( ... raqam bilan ro'yxatga olingan).(Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy.Tel.: (+99871) 254-92-02; faks: (+99871) 215-54-20.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

2023 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi.

**Z.N.Mamarajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., prof.

**R.G.Isyanov**

ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, p.f.n., dotsent

**S.S.Bulatov**

ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, p.f.d., prof.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasini annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim muassasalari yuqori axloqiy, milliy va diniy bag'rikenglik, boshqa etnik guruhlarning tillari, madaniyati, an'analari va urf-odatlariga hurmat ko'rsatadigan mobil va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning innovatsion texnologiyalari amaliyotga tadbic etilmoqda. Erkin va faol fikrlash, o'quv jarayonini modellashtirish, mustaqil ravishda yangi g'oyalarni amalga oshirish, o'qitish va ta'lim texnologiyalarini loyihalash qobiliyatiga ega bo'lajak o'qituvchida verbal-kasbiy kompetensiyani takomillashtirish bo'yicha tizimli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo'lajak o'qituvchining o'quv jarayonida ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish, kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirish hamda faoliyatining yuqori natijalariga erishish maqsadida verbal-kasbiy kompetensiyani takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni xorijiy til bo'yicha kasbga tayyorlash, ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, xorijiy til ko'nikma va malakalarini takomillashtirish darajasi diagnostikasini amalga oshirish, modulli ta'limni yo'lga qo'yish, kasbiy kommunikativlikni takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilar qobiliyatligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish, bo'lajak o'qituvchilarni ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda tayyorlash xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan mutaxassislar tayyorlash jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng foydalanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish va ta'lim sifatini baholash asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, oliy ta'lim muassasalarida tillarning fanlarga integrallashtirilgan holda o'rgatish imkoniyati kengaytirildi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son, "Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida, 2020 yil 17 noyabrdagi 723-sonli "Millatlararo totuvlik, tolerantlik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish" to'g'risida, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qaror va farmonlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni

ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy takomillashtirishda, innovasion g'oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ta'lim sifatini oshirishni nazorat qilish, ijodiy va kasbiy tafakkurni takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish B.S.Abdullayeva, B.A.Abdukarimov, X.Ibraimov, N.A.Muslimov, A.T.Nurmanov, A.A.Xalikov, A.R.Xodjabayev, Sh.S.Shodmonovalar; ta'lim tashkilotlarida xorijiy tilni o'qitish masalalari L.T.Axmedova, N.M.Axmedova, Sh.A.Atadjanova, M.X.Gulyamova, U.Jumanazarov, A.E.Mamatova, D.R.Pulatova, K.Dj.Riskulova, T.K.Sattarov, B.O.Toshboyeva, J.A.Yakubovlar tomonidan aniqlangan.

Bo'lajak o'qituvchining verbal-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishni imkoniytlari K.A.Abramova, V.I.Baydenko, V.I.Blinov, Yu.V.Vardanyan, L.K.Grebenkina, M.N.Karpetova, O.E.Lomakina, A.K.Markova, D.S.Ostapchuk, A.V.Raysevlar tomonidan aniqlangan..

Verbal muloqot vositasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish S.Aubin, Kh.Amal, W.E.Blank, Yu.O.Bozhko, F.Chenu, M. Jaeger, E.Hall, G.Hofstede, A.Opaluwah, N.A.Tarasevich tomonidan tadqiq qilingan.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923121 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020 yy).

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta'lim tashkilotida bo'lajak o'qituvchilarni verbal-kasbiy kompetensiyani takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil etish;

bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyasini integral xususiyatlari vositasida takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyasini didaktik shart - sharoitlarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchining verbal-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat universiteti, Samarqand davlat universitetining 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (fransuz til), matematika o'qitish metodikasi (fransuz til) va fizika-astronomiya o'qitish metodikasi (fransuz til) yo'nalishlari 2-kurs bo'lajak o'qituvchilarida 435 nafari ishtirok etdilar.

**Tadqiqotning predmetini** oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Belgilangan vazifalarni hal qilish va dastlabki taxminlarni tekshirish uchun bir-birini tekshiradigan va bir-birini to'ldiradigan tadqiqot usullari to'plami qo'llanildi. Nazariy: tadqiqot muammosi bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, xorijiy til fanlari bo'yicha ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, sintez, taqqoslash, modellashtirish. Empirik: kuzatish, suhbat, so'roq, test, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish, tajriba-sinov ishlar, metodlar, olingan ma'lumotlarni tematik va statistik qayta ishlash va ularni izohlashdan iborat.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish imkoniyatlari o'z fikrini adekvat ifodalash, verbal, noverbal va paraverbal vositalarni tahliliy modellashtirish hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni ta'limiy maqsadlarga ijodiy moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish samaradorligi mantiqiy tuzilmalar va ilmiy abstraksiyalarni bosqichma-bosqich optimallashtirish hamda selektiv, ogohlik, samaradorlik, ijodiy tabiiy sezish mezonlarining validligi va adekvatligini izchil aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish jarayoni verbal-kasbiy kompetensiyani ifodalovchi shaxsning integral xususiyatlari va ijodiy fikrlash faoliyati natijalarini oldindan ko'ra bilishning natijadorligini ta'minlash hamda bilimlarni egallash qobiliyatlarini o'zaro effektiv uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish modeli lingvistik, kommunikativ, shaxsiy rivojlanish kompetensiyalarini o'zaro nutqiy muloqot davomiyliigi va darajasiga ko'ra integratsiyalash hamda o'quv maqsadlariga mos optimallashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Xorijiy til va adabiyoti” (fransuz til) turli nofilologik ta'lim yo'nalishlari, jumladan, matematika o'qitish metodikasi va fizika-astronomiya o'qitish metodikasi yo'nalishlari bo'lajak o'qituvchilarning fransuz tilidan verbal-kasbiy kompetentlik mazmun-mohiyatini o'zlashtirish amalga oshirildi;

taqdim etilgan tadqiqot materiallari va uslubiy tavsiyalar oliy ta'lim muassasasi bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari malakasini oshirish tizimidagi mutaxassislarning kasbiy kompetentlik tushunchalarini o'zlashtirishda matematika o'qitish metodikasi va fizika-astronomiya o'qitish metodikasi yo'nalishlarida o'tiladigan “Xorijiy til” fanining o'quv dasturi, o'quv-metodik majmuasi hamda o'quv modullari ishlab chiqilgan.

Oliy ta'lim muassasalarining nofilologik ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun "Le Francais" o'quv qo'llanmasi nashr etilib, ta'lim jarayoniga tatbiq qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** asl konsepsiyaning ilmiy-uslubiy asoslilik, tadqiqotning tizimlilik, ilmiy-pedagogik tadqiqotning bir-birini to'ldiruvchi nazariy va empirik usullaridan foydalanish bilan ta'minlanadi. Uning maqsad va vazifalari, tadqiqot natijalarini tajriba-sinov orqali tasdiqlash, standart usullar asosida olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash bilan belgilanib, ishlab chiqilgan didaktik materiallar, xulosalar va tavsiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi, vakolatli organlar tomonidan olingan natijalarning tasdiqlanishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning mazmuni va shartlari to'g'risida olingan bilimlar.

"O'qituvchining verbal-kasbiy kompetensiyasi" ta'rifiga ilmiy-nazariy izoh beriladi, tahlil qilinayotgan hodisaning mohiyati va mazmunini asoslab berish orqali oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv nazariyasiga ma'lum hissa qo'shadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati natijalaridan bo'lajak o'qituvchilarni asosiy va qo'shimcha mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlashda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Bundan tashqari, dissertasiyada keltirilgan materiallar va xulosalardan professor-o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida foydalanish, xorijiy til fanidan ma'ruza, amaliy kurslari va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda qo'llanilishi mumkin. Olingan natijalardan "Ta'lim nazariyasi", "Xorijiy til nazariyasi va metodikasi", "Pedagogik texnologiyalar", "Xorijiy til", "Pedagogik faoliyatga kirish" fanlarini o'rganish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari:

oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish imkoniyatlari o'z fikrini adekvat ifodalash, verbal, noverbal va paraverbal vositalarni tahliliy modellashtirish hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni ta'limiy maqsadlarga ijobiy moslashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Le Francais" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i asosida berilgan 302-0096 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish samaradorligi mantiqiy tuzilmalar va ilmiy abstraksiyalarni bosqichma-bosqich optimallashtirish hamda selektiv, ogohlik, samaradorlik, ijodiy tabiiy sezish mezonlarining validligi va adekvatligini izchil aniqlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Le Francais" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i asosida berilgan 302-0096 raqamli nashr

ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modelini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish jarayoni verbal-kasbiy kompetensiyani ifodalovchi shaxsning integral xususiyatlari va ijodiy fikrlash faoliyati natijalarini oldindan ko'ra bilishning natijadorligini ta'minlash hamda bilimlarni egallash, nutqning ravonligi va voqealikka ko'rish qobiliyatlarini o'zaro effektiv uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Le Francais" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i asosida berilgan 302-0096 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchining verbal-kasbiy kompetensiyasini integral xususiyatlari vositasida takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish modeli lingvistik, kommunikativ, shaxsiy rivojlanish kompetensiyalarini o'zaro nutqiy muloqot davomiyligi va darajasiga ko'ra integratsiyalash hamda o'quv maqsadlariga mos optimallashtirish asosida takomillashtirishga doir takliflar "Le Francais" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i asosida berilgan 302-0096 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyasini motivatsion komponentlarini takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 136 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni takomillashtirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "Oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobda bo'lajak o'qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyasini

takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida verbal muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning ahamiyati, shuningdek, verbal-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning hozirgi holati yoritib berilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish; xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish muhim vazifalar sifatida belgilab berildi. Erkin va faol fikrlash, o'quv jarayonini modellashtirish, mustaqil ijodiy muhitni yaratish, yangi g'oyalarni amalga oshirish, o'qitish va ta'lim texnologiyalarini loyihalash qobiliyatiga ega bo'lajak o'qituvchida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish muammosi zamonaviy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar jarayonida dolzarbligi barchimizga ma'lum.

Shunga ko'ra, mazkur ishimizda "kompetensiya" tushunchasiga turli olimlar va tadqiqotchilar guruhining muayyan dunyoqarash pozitsiyalari natijasida yuzaga keladigan ta'riflarning xilma-xilligi hisobga olingan. Masalan: T.A. Stepanova faoliyat yoki tajriba usullarini o'zlashtirgan, I.A. Zimnyaya ijtimoiy va kasbiy hayotning bilimga asoslangan intellektual va shaxsiy shartli tajribasi, D.B. Elkonin shaxsning faoliyatdagi ishtiroki o'lchovi (uning ijtimoiy "kesimi"da), N.A. Muslimov kompetentlik nuqtai nazaridan yondashuv kasb ta'limini takomillashtirish asoslaridan biridir K.Dj. Riskulova "Kompetensiya" u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisi deb ta'riflashgan.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston va xorijiy ta'lim hamjamiyatida "kompetentlik" ta'rifi bo'yicha yagona aniq va bir ma'noli tushuncha mavjud emas. Shu bilan birga, tahlil natijalari chet el va milliy pedagogikada muammoga doir yondashuvlarning umumiyliги va shaxs kompetentligining akmeologik yo'naltirilganligi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Natijada tadqiqot doirasida "kompetensiya", "kompetentlik" va "verbal-kasbiy kompetentlik" tushunchalarining quyidagi ta'riflari aniqlashtirildi:


Tahlil qilinayotgan tushunchalar bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq bo'lib, kompetentlik "insonda mavjud bo'lgan narsalarning yig'indisi va kompetensiya – u egalik qiladigan narsalarning yig'indisi sifatida" tavsiflaydi.

Verbal-kasbiy kompetentsiya - bu shaxsning kasbiy tayyorgarligi, tajribasi va individual qobiliyatlari darajasi, uning doimiy ravishda o'zini o'zi tayyorlashi, muloqot va nutq ravonligiga e'tibor qaratish va biznesga mas'uliyatli munosabatda bo'lishidir.

Bizning ishimiz uchun yanda qiziqarli fikrlar "bo'lajak o'qituvchining verbal-kasbiy kompetensiyasi uning kasbiy faoliyat (bilim) maqsadlari, mohiyati, tuzilishi, vositalari, usullari, xususiyatlari to'g'risidagi xabardorligini aks ettiradi; ushbu faoliyat texnologiyasiga ega bo'lish (ko'nikma va qobiliyatlar); kasbiy va nutqiy

faoliyatning ahamiyati va takomillashtirish istagi (kasbiy yo‘nalish) haqida tushuncha beradigan mutaxassisning individual psixologik fazilatlari; umuman olganda, bo‘lajak o‘qituvchining verbal-kasbiy kompetensiyasi bir qator xususiyarlarga ega (1-rasm). Xususan, uning muhim tarkibiy qismlari bo‘lajak o‘qituvchining yuksak missiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan insonparvarlik va ma‘naviy komponentlar shundan iboratki, u shaxsni yaratish hamda uni jamiyat va shaxsning ijtimoiy va qadriyat yo‘nalishlariga mos ravishda takomillashtirishdir.

Verbal-kasbiy kompetensiya muammosini takomillashtirishning muhim yo‘nalishi ushbu pedagogik hodisaning tuzilmasini aniqlash, shuningdek, ularning mazmunini tavsiflashni talab qiladi.



**1-rasm. Verbal-kasbiy kompetensiya tuzilmasining maxsus mezonlari**

Ko‘plab tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, verbal-kasbiy tayyorgarlik tizimida uning maqsadlariga muvofiq kasbiy kompetensiya tuzilmasiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi: inson tomonidan yaratilgan tajribaning qiymatini tushunish; ushbu tajribani to‘g‘ri yetkazish usullarini o‘zlashtirish; o‘smirlik va yoshlik xususiyatlarini tushunish; kasb-hunar maktabi yoki litseyda raqobatbardosh ishchilarning zarur kasbiy tayyorgarligidan xabardor bo‘lish; ta’limning asosiy parallellarini rivojlantirish mantiqiy jarayon; professional (ob’ektiv zarur) psixologik va pedagogik bilim;

kasbiy (ob'ektiv zarur) pedagogik nutqiy mahorat; bo'lajak o'qituvchining kasbi bo'yicha undan talab qilinadigan kasbiy psixologik pozitsiyalari, munosabatlari; kasbiy bilim va verbal muloqot ko'nikmalarni egallashini ta'minlovchi shaxsiy xususiyatlar.

Verbal-kasbiy kompetensiya tuzulmasi uchun quyidagi maxsus mezonlarni belgiladik:

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy malakasi tahlil qilinayotgan tushunchaning ko'p qirraliligi, murakkabligi, noaniqligidan dalolat beradi va bo'lajak o'qituvchiga kasbiy o'zini o'zi tarbiyalash dasturini belgilashda ijodkorlik ko'rsatishga imkon beradi.

Bundan tashqari, bizning tadqiqotimiz uchun bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining asosiy, majburiy va istiqbolli tarkibiy qismlaridan biri - bu verbal muloqotdir. Verbal muloqot xorijiy tillarni yetarlicha yuqori darajada bilishni, shuningdek, inson nutqi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki muloqot o'rnatish, o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida samarali muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Samarali verbal muloqot turlari so'zlar, tovushlar va tillar verbal muloqotning faqat bir qismidir. Talabalar bilan samarali muloqot qilish uchun avvalo ularning kimligini tushunish kerak. Piramida prinsipidan foydalanishni unutmaslik va tasdiqlovchi dalillarga o'tishdan oldin asosiy argumentdan boshlash muhimdir. Talabalarga qarab, biz ularni kasbiy tayyorgarlik jarayonida verbal muloqotni to'rt toifaga bo'lishimiz mumkin(1-jadval):

### 1-jadval

#### Kasbiy tayyorgarlik jarayonida verbal muloqot toifalari

<b>№</b>	<b>Verbal muloqot toifalari</b>	<b>Verbal muloqot toifalari tasnifi</b>
<b>1</b>	<b>Shaxs ichidagi muloqot</b>	Bu ovozli suhbat uchun yo'nalish. Siz o'zingiz bilan suhbatlashasiz va fikringizni bildirasiz. Agar siz o'zingiz bilan muloqot qilsangiz, fikrlashda ishonch va ravshanlikka ega bo'lasiz.
<b>2</b>	<b>Shaxslararo muloqot</b>	Bu yakkama-yakka og'zaki muloqot sifatida ham tanilgan. Ushbu muloqot shakli ikki kishi o'rtasida sodir bo'ladi. Bu fikrni aniq bildirayotganda ko'rish imkonini beradi.
<b>3</b>	<b>Kichik guruh muloqoti</b>	Kichik guruhlardagi muloqotda odamlar soni ko'payadi. Siz faqat bir kishi bilan gaplashishdan bir necha kishidan iborat guruhga aylanasiz.
<b>4</b>	<b>Jamoatchilik bilan aloqa</b>	Bu uslub, shuningdek, "omma oldida nutq so'zlash" deb ham ataladi. Indivud bir vaqtning o'zida odamlarning katta guruhiga gapiradi. Ommaviy muloqot nutqlar, siyosiy kampaniyalar va taqdimotlarni o'z ichiga oladi.

Yuqorida aytilganlarga ko'ra, nofilologik mutaxassisliklar bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning verbal muloqotini takomillashtirish kasbiy kompetensiyaning ayrim qismlarini takomillashtirish bilan parallel ravishda davom etishi kerak. Shu sababli, fransuz tildagi professional kompetensiyaning tarkibiy qismlarida verbal muloqot jihatini jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, soʻzning keng maʼnosida vositalar - bu insonga taʼsir qiluvchi vositalar, tabiatdagi va jamiyatdagi predmetlar, harakatlar, hodisalar, tafakkur, yaʼni butun real olam oʻzining barcha koʻrinishlarida umumiy va alohida izohlanadi. Bizning fikrimizcha, aloqaning turli shakllarida amalga oshiriladigan oʻziga xos koʻp funksiyali vositalar toʻplamini ifodalovchi “verbal muloqot vositalari” toifasida alohida maʼno yaʼni, verbal, noverbal va paraverbal aloqa vositalari mavjud. Ushbu vositalarning pedagogik salohiyati ularning subʼekt shaxsining intellektual, ehtiyoj-motivatsion, hissiy-irodaviy, faoliyat sohalariga kompleks taʼsir qilish imkoniyatidadir, bu umuman olganda, kasbiy shaxsni takomillashtirish jarayonining samaradorligiga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Oliy taʼlim tashkilotlarida boʻlajak oʻqituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobda uzluksiz taʼlimda boʻlajak oʻqituvchilarni tizimli tayyorlash va ularni verbal muloqot asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan oʻqitish usullarining xususiyatlari, shakllari, taʼlim jarayonini tashkil etish vositalarini olimlar taʼlim maqsadlari bilan bogʻlaydilar. Shuningdek taʼlimga turli yondashuvlar, taʼlim tamoyillari va komponentlari bilan yondashish boʻlajak oʻqituvchining madaniy kasbiy kompetensiyani rivojlanishiga doir maʼlumotlar keltirilgan.

Jahon miqyosida xorijiy til oʻqitishning didaktik tizimini takomillashtirish, boʻlajak oʻqituvchilarda verbal-kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish, boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, boʻlajak oʻqituvchilarning verbal-kasbiy kompetentligini rivojlantirish boʻyicha kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash, xorijiy til boʻyicha kasbga tayyorlash, taʼlim sifatini xalqaro darajaga koʻtarish, xorijiy til koʻnikma va malakalarini takomillashtirish darajasi diagnostikasini amalga oshirish, modulli taʼlimni yoʻlga qoʻyish, kasbiy kommunikativlikni takomillashtirishning pedagogik zaruriyati yuzaga kelmoqda. Mazkur zaruriyatdan kelib chiqib, boʻlajak oʻqituvchilarning verbal-kasbiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni, modeli va texnologiyalarini ishlab chiqish muhim dolzarflik kasb etadi.

Oliy taʼlim tashkiloti boʻlajak oʻqituvchilarning verbal-kasbiy kompetentligini takomillashtirish bilan bogʻliq ravishda til taʼlimning quyidagi didaktik imkoniyatlari: oʻzini-oʻzi rivojlantirish; atrof-muhitga kirishish; modulli taʼlimni amalga oshirish; ijodiy faoliyatni olib borish, intellektual jarayonni kengaytirish, maʼnaviy rivojlanish imkoniyatlari samaradorligi aniqlashtirildi.

Shu asosda biz boʻlajak oʻqituvchilarning shaxsiy pedagogik faoliyatini zarur va yetarli darajada rivojlantirishni taʼminlaydigan taʼlim jarayonini quyidagicha taklif qilmoqchimiz. Bunda boʻlajak oʻqituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyasini oshirish pedagogik shart-sharoitlari maqsadga muvofiq: auditoriya kontingentining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, qulay axloqiy-psixologik muhitda subʼekt va subʼektning oʻzaro taʼsirini amalga oshirish; ragʻbatlantirish, maqsadli, mazmunli, protsessual, nazorat-baholash va natijaviy komponentlarni hisobga olgan holda, kasbiy kompetensiyani takomillashtirishni taʼminlaydigan oʻziga xos kasbiy, maʼrifiy, rivojlanayotgan muhitni yaratish; kasbiy kompetensiyani takomillashtirish jarayonida verbal kommunikativ makonni taʼminlash; boʻlajak

o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish va o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoji, shaxsning intellektual, motivatsion, hissiy irodaviy va faoliyat sohalariga ta'siri; bo'lajak o'quv kognitiv va ilmiy faoliyatga jalb qilish.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hamda kasbiy mahoratini takomillashtirish shart-sharoitlarini qiyidagicha guruhlarga taqsimlab oldik. Pedagogik jarayonni ta'minlashga ustivor vazifalari qilib, rivojlanayotgan ijodiy muhit, shuningdek yaratadigan tashqi omillar bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchining o'z salohiyatiga mos turli materiallar, fan muhitini tashkil etish orqali o'quv faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish bilan belgilanadi.

Ilmiy muhit yaratish orqali pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarga ta'lim mazmuni, texnologik va ilmiy-uslubiy takliflarni o'z ustivor yo'nalishlari bo'yicha birlashtirish lozim. Samaradorlikni optimallashtirish nuqtai nazaridan, biz ushbu qo'llab-quvvatlash shakllarining bo'lajak o'qituvchilarning o'quv jarayonini shakllantirishga samarali ta'siri va qo'yilgan maqsadlarga maqbul erishish pedagogik mutaxassislarni tayyorlash va rivojlantirishning eng muhim sharti deb hisoblaymiz. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim jarayoniga ilg'or axborot, ishlab chiqarish, pedagogik va psixologik texnologiyalarni joriy etish orqali bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning texnologik xavfsizligi; ilmiy-uslubiy ta'minot - yagona mutaxassis pedagogik-uslubiy ta'minotni yaratish, ilmiy-pedagogik kafedralar salohiyatini rivojlantirish, ilmiy-amaliy faoliyatni tashkil etish va faollashtirish bilan izohlanadi.

Aloqaning turli shakllarida amalga oshiriladigan o'ziga xos ko'p funksiyali vositalar to'plamini ifodalovchi "verbal muloqot vositalari" toifasida alohida ma'no ya'ni, verbal, noverbal va paraverbal muloqot vositalari mavjud. Ushbu vositalarning pedagogik imkoniyati ularning sub'ekt shaxsining intellektual, ehtiyoj-motivatsion, hissiy-irodaviy, faoliyat sohalariga kompleks ta'sir qilish imkoniyatidadir, bu umuman olganda, kasbiy shaxsni takomillashtirish jarayonining samaradorligiga yordam beradi.


Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish hozirgi vaqtda ko'rib chiqilayotgan tushunchaning mohiyati va mazmunini ochishga turli xil yondashuvlar mavjudligini aniqlashga imkon berdi. Bizning tadqiqotimiz doirasida biz xorijiy til o'qituvchisining verbal muloqot asosida kasbiy kompetensiyani quyidagi xususiyatlar yig'indisida ifodalangan shaxsning integral xususiyati motivatsion (kelajak kasbi uchun ijobiy motivatsiyaning mavjudligi); kognitiv (kasbiy bilim: xorijiy tili, o'qitish metodikasi, psixologik-pedagogik bilimlar); faoliyat (kasbiy ko'nikma va malakalar: xorijiy tilida muloqotni mantiqiy qurish layoqati, o'qitish layoqati, pedagogik muloqot qilish layoqati, o'z-o'zini tarbiyalash layoqati); shaxsiy komponent (kasbiy jihatdan muhim shaxsiy fazilatlar)sifatida tadqiq qildik.

O'qituvchining verbal-kasbiy kompetensiyasi tarkibidagi motivatsion komponent o'qituvchining pedagogik qadriyatlarini amalga oshirishga kasbiy tayyorligini tavsiflaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki shaxsiyatning kognitiv nazariyasiga ko'ra, har bir shaxs turli murakkablik va mazmundagi kognitiv "shaxsiy tuzilmalar" tizimini yaratadi, ular prizmasi orqali u tashqi dunyoni, boshqa odamlarni va o'zini baholaydi. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibida biz faoliyat xususiyatini ajratib ko'rsatamiz. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismi bu shaxsning ko'nikma va qobiliyatlarida ifodalangan faoliyatdir.

Shaxsiy komponent kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarini o‘z ichiga oladi, biz bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish ko‘rsatkichlari va darajalarini aniqlashda batafsilroq ko‘rib chiqamiz. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash kerakki, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi ostida biz shaxsning integral xususiyatlarini, shu jumladan uning kasbiy faoliyatni amalga oshirishda samarali qarorlar qabul qilishga tayyorligi va qobiliyatini tushunamiz.

Shuningdek, kasbiy tayyorgarlikning verbal muloqot vositasi bilan bir qatorda noverbal muloqot vazifasi ham alohida ahamiyatga ega. Noverbal vositalar - bu harakat, harakatlari (imo-ishoralar), mimika, qarash, "fazoviy buyruq", ovoz xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Noverbal aloqa vositalari boy va ko‘p qirrali bo‘lgani uchun ularning turli tasniflari mavjud. Biz quyidagi tasvir orqali verbal bo‘lmagan aloqa vositalarini to‘rt guruhni ajratish asosida tizimlashtirishni ko‘rib chiqamiz.




**2-rasm. Noverbal muloqot vositalari tizimi**

O‘rgangan muloqotda verbal va noverbal aloqa vositalari bilan bir qatorda paraverbal vositalar ham qo‘llaniladi, ular og‘zaki nutqqa hamroh bo‘lgan, unga qo‘shimcha ma’nomalarni kiritadigan tovush signallari to‘plamidir.

Paraverbal muloqot paytida ma’lumot turli tillarda ma’lum ma’noga ega bo‘lgan ovozli soylar orqali uzatiladi. Paraverbal muloqotning maqsadi sherikda ma’lum bir maqsad va niyatlarga erishish uchun zarur bo‘lgan his-tuyg‘ularni, tajribalarni uyg‘otishdir. Bunday natijalarga odatda paraverbal aloqa vositalari yordamida erishiladi, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: prosodiya – nutqning tezligi, tembr va ovozning balandligidir; ekstralongvistika – bu pauza, yo‘tal, xo‘rsinish, kulish va yig‘lash (ya’ni, biz ovoz yordamida takrorlanadigan tovushlar).

Paraverbal muloqot tilning ohang va tembr xususiyatlariga va ularning muloqotda qo‘llanilishiga asoslanadi. Shu asosda sokin (ingliz) va baland (Fransiya) madaniyatlarini farqlash mumkin.

Oliy ta’lim tashkilotida bo‘lajak o‘qituvchilarning verbal-kasbiy kompetentligini takomillashtirish mazkur jarayonni modellashtirishni taqozo etdi. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarning verbal-kasbiy kompetentligini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).



**3-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarni verbal-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish modeli**

